

## O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI VA ROLI

**Mamarahimova Gulshoda Shuhrat qizi**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi*

**Xudoyberdiyeva Zohida Ilhomjon qizi**

*Toshkent davlat agrar universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** *O'zbekistonda so'nngi yillarda xotin-qizlarga bo'lgan e'tibor yildan yilga o'sib bormoqda. Hattoki, davlat ishlarida, hokimiylatlarda va turli xil hukumatlarda o'z o'rniiga ega bo'lib borayotgan ayollar soni keskin o'smoqda. Bu esa, albatta, jamiyatni rivojlanishiga yana bitta turtki bo'ladi.*

**Kalit so'zlar:** *xotin-qizlar, zamonaviy ayol, uy bekasi, raxbar, jamoat tashkilotlari, ijtimoiy va siyosiy tenglik.*

### KIRISH

"Farzandlarimizni yaxshi xulq egalari qilib tarbiyalashimiz uchun avvalo, millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim." -deb ta'kidlaydi Furqat.

Agar mustaqillik yillardan oldingi davrlarga nazar soladigan bo'lsak, deyarli jamiyatda ayollarning o'rni va roli ahamiyatsiz bo'lган. Ya'ni ular deyarli savodsiz va davlat ishlariga deyarli yaqinlasha olmagan. Umrining asosiy qismini faqat uy yumushlari yokida bolalarning tarbiyasiga qarash bilan o'tgan. Balki o'sha davr uchun bu ayollarning asosiysi vazifasi hisoblangan bo'lishi mumkin lekin har bir shaxsning, insonning jamiyatda o'z o'rni mavjuddir. Bunday holatlar odatiy tusdek bo'lib kelgan. To'g'ri, savol paydo bo'lishi mumkin. Ya'ni SSSR davrida ham ayollar hokimiylatlarda ishlagan deyish, lekin ular asosan rus millatiga tegishli bo'lган, ba'zi hollarda esa o'zbeklarning ham ishga jalb qilishgan kimlarniki, davlatga moyil bo'lган shaxslarningina qarindosh yokida ayollariga nasb qilgan. Lekin O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka ega bo'lgach, davlat hayotida ayollarning ham roli oshib bordi. Aniqroq qilib aytganda, maktab va oliy ta'lim muassasalarida ham ta'lim ola boshladi. Davlat tomonidan chegaralangan ayollarga qarshi har qanday nizomlar va qat'iy qonun-qoidalar olib tashlandi. Bunday xatti-harakatlar, albatta, jamiyatda yaxshi oqibatlarga olib keldi. Ayollar o'rtasida ham turli xil ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga qatnashish uchun targ'ibot ishlari olib borildi va ta'kidlab o'tish joizki bu ishlar ayollar orasida katta natijalarga ega bo'lishga ko'maklashdi.

### ASOSIY QISM

Yer yuzida dunyo aholisining teng yarmidan kam qismi ayollar hissasiga to'g'ri keladi. Countrymeters loyihasiga ko'ra, 15 avgust kuni dunyo aholisining soni 8 mlrddan oshdi. Ularning 4,04 mlrd nafari erkak, 3,96 mlrd nafari ayollardir. Bu bilan erkaklar va ayollar soni o'rtasidagi tafovut 1,018 ni tashkil etmoqda.[1] Bu esa o'z navbatida har bir davlat va jamiyat uchun har bir ayol va erkaklarning roli muhimligidan darak beradi. O'zbekiston misolida ko'radigan bo'lsak, hozirgi vaqtida aholi soni "Davlat statistika qo'mitasi xabar

berishicha, ularning 17,5 mln nafarini erkaklar, 17,4 mln nafarini ayollar tashkil etmoqda.” [2] Endi jamiyatimizdagi xotin-qizlarning roli va o’rniga kelsak, shu davrgacha ayollar erkaklar nazarida faqatgina uy bekasi yoki bola tarbiyachisi sifatida qaralgan. O’zbekiston tarixida eng katta o’chmas iz qoldirgan sana ya’ni mustaqillikning qo’lga olinishi, o’z navbatida ayollarga ham erkning qo’lga olinishiga imkon yaratdi. To’g’ri, o’tgan asrda ayollarga qarshi hech qanday tazyiq bo’lgan deyish mumkin, lekin ayollar hech qanday imkoniyatlarga ega bo’lmagan. Lekin imkoniyatlar eshigi ochilishi bilan ayollar ham o’z qobiliyatlarini davlat ishlarida ham ko’rsata boshladи. Birinchi Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qarorlarga nazar tashlasak, Prezidentimiz rahnamoligida aholi, xususan, xotin-qizlar bandligini ta’minalash, ularning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faolligini oshirish, huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilayotgan alohida e’tibor yuksak samaralar berayotgani ta’kidlandi. Ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda “Ayollar ijtimoiy moslashuv markazlari” muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu markazlar ayollarni turli vaziyatlarga tushib qolganida ruhiy va psixologik yordam ko’rsatadi. Bundan tashqari “Ayollar maslahat markazi”, “Ayollar va bolalarni ijtimoiy himoyalash” markazlarining tashkil etilgani xotin-qizlarga ko’rsatilayotgan e’tibor va g’amxo’rlikning yana bir yorqin ifodasi bo’ldi. Zотан, mazkur markazlar xotin-qizlar o’rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, ularning qonuniy manfaatlari, huquq va erkinliklarini himoya qilish, oila institutini rivojlantirish kabi ezgu maqsadlarga xizmat qilayapdi.[3]. Ayollarning davlat ishlarida roli oshganini biz hukumatni boshqarishda o’z tajribasiga ega bo’lib kelayotgan ayollardan misol qilib, Oliy Majlis Senati raisi Norboyeva Tanzila Kamolovna, O’zbekiston Respublikasi Prezident Admistratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori o’rinbosari hisoblangan Saida Mirziyoyeva va yana ko’plab ayollarni misol qilib olsak bo’ladi. Ular ham hozirda ayollarning rolini oshirish uchun ahamiyatga molik ishlarni qilishmoqda. Undan tashqari Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qarorlardan birini, aytishimiz joizki, 2019-yil 2- sentabrda “Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq va hamda imkoniyatlar kafolatlari” to’g’risidagi qonun mavjud bo’lib, 5-moddasida jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, ya'ni har bir faoliyat turida ayollarimiz erkaklar kabi istagan kasbida ishlashi va o'z karyerasini tashkil qilishi mumkin. Unda tashqari yangilangan Konstitutsiyamizning 58-moddasiga e’tibor bersak, unda ayollar va erkaklarning tengligi haqida so’z ketadi, ya’ni gender tenglik haqida.[3]. Zamonaviy ayol deganda biz o’z hayot karyerasiga ega bo’lgan ayollarni tushunishimiz mumkin. Ular o’z bilim tajribasini yanada oshirishga harakat qiladi. Ayollar orasida ijtimoiy va siyosiy tenglik o’z yechimi topdi. Hattoki rahbarlik darajasiga ham yetib bordi, undan tashqari ijtimoiy sohalarda faol qatnashib kelmoqda. O’z navbatida hamma hozirda o’zi istagan oliygochlarda ta’lim olmoqda. Xotin-qizlar uchun turli xil o’qishga kirishda imkoniyatlar yaratib berdi, misol uchun, kam ta’minlangan oila qizlari uchun “Xotin-qizlar” imtirozi berildi. Bu ham qandaydir xotin-qizlar uchun katta imkoniyat kaliti deb hisoblashimiz mumkin, shu tufayli hozirgi davrda ko’p qizlar oliygochlarda o’qishini davom ettirmoqda.

## XULOSA

Ishonib aytishimiz mumkinki, keyingi yillarda ham bu kabi sa'y-harakatlar to'xtab qolmaydi, aksincha yanada imkoniyatlar eshigi ochilaveradi. Biz ham, talabalar, o'zimizdan keyingi avlod uchun katta imkoniyatlar yaratishga harakat qilamiz. Har qanday xalqning yetuklik darajasini, avvalo, ayollarning ilmiy-madaniy kamoloti belgilab berishi, oqila va o'qimishli onalar millatning buyuk kelajagini yaratishlari hammamizga yaxshi ayon. Shu bois donishmandlar:

“Bitta qiz bolani o'qitsangiz – butun oilani o'qitgan bo'lasiz”, deb bejiz ta'kidlamaganlar.[4] Shuning uchun xalqimiz o'z farzandlariga ilm olishga imkoniyat yaratib bersa, o'ylaymanki, davlatimiz keyingi yillarida anglab bo'lmas natijalarga erishadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/08/15/population/>
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/09/07/demography/>
3. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/258>
4. <https://president.uz/oz/lists/view/5036>